

**OTA-ONA NAZORATI VA QAROVSIZ QOLIB KETGAN BOLALAR BILAN  
PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHDAGI TAVSIYALAR.**

**Kurbanbayev Sardorbek Kasimbay o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huziridagi Ijtimoiy Himoya Agentligi  
Qoraqalpog'iston Respublikasi Boshqarmasi Beruniy tumani "Inson" Ijtimoiy xizmatlar  
markazi psixologi*

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy oilalardagi tarbiya muammolari, ota-onanining nazorati sustlashuvi va uning oqibatlari — bolalarning qarovsiz qolib ketishi, psixologik muammolarning chuqurlashuvi kabi holatlar yoritilgan. Qarovsiz bolalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilinadi va ularning psixologik qo'llab-quvvatlanishida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologlarining samarali va sifatli xizmat shakllari, real tavsiyalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** ota-ona nazorati, qarovsiz bola, psixologik xizmat, psixokorreksiya, ijtimoiy himoya, emotsiyonal rivojlanish.

## **KIRISH**

Har bir bola xavfsiz, mehrga to'la va nazoratdagi muhitda ulg'ayishga haqli. Afsuski, bugungi jamiyatda bu ehtiyojlarning barchasi to'laqonli ta'minlanmayapti. Ota-onalarning iqtisodiy bandligi, migratsiya, ma'naviy inqiroz yoki oilaviy ajrimlar sababli ko'plab bolalar qarovsiz qolib ketmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2022–2024 yillar oraliq'ida qarovsiz bolalar soni 12% ga oshgan (Xodjaeva, 2024).

Mening shaxsiy kuzatuvlarimga ko'ra, ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologlar bu kabi bolalarning chuqur psixologik ehtiyojlarini anglashda ko'plab to'siqlarga duch kelishmoqda. Bu esa aniq tizim va metodik yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bunda psixolog va ota-onalarda resurslar yetishmovchiligi yoki ulardan to'g'ri va to'liq foydalana olmaslik holatlari ham uchrab turishi bolalar o'z his-tuyg'ularini tog'ri anglay olmaslik yoki o'smirlik krizslari bilan yanada qiyinlashuvi oqibatida ota-ona va yaqinlaridan uzoqlashish va xulqiy buzilishlarga ham sabab bo'lmoqda.

### **Asosiy qism**

#### **1. Ota-ona nazoratining psixologik asoslari**

Psixologik nazorat — bu bolaning hayotiga haddan ortiq aralashuv emas, balki uning ehtiyojlarini anglab, doimiy ravishda emotsiyonal, axloqiy va ijtimoiy yo'nalishda yetakchilik qilishdir (Кулагин, 2019). Demokratik nazorat uslubida bolaning shaxsiy fikri qadrlanadi, lekin unga aniq me'yorlar va chegaralar ham beriladi.

Baumrind (1966) tomonidan taklif etilgan quyidagi ota-onal tarbiyasi uslublari bolaning rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

- Avtoritar (buyruqboz): doimiy nazorat bor, ammo hissiy aloqa yo'q
- Erkinlik beruvchi (indulgent): hissiy aloqa kuchli, lekin nazorat yo'q
- Beparvo (negligent): nazorat ham, hissiy aloqa ham mavjud emas
- Avtorizatsiyalangan (demokratik): nazorat va hissiy qo'llab-quvvatlash muvozanatda

## 2. Qarovsiz bolalarning psixologik portreti

Qarovsiz qolib ketgan bolalar ko'pincha quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

- Emotsional sovuqlik yoki ortiqcha his-hayajon;
- O'zini qadrlamaslik, ishonchsizlik;
- Agressiv yoki bo'ysunuvchan xatti-harakatlar;
- Ijtimoiy chekinish (yolg'izlik, mактабдан qochish);
- Ruhiy zo'riqish (depressiv holatlar, o'ziga zarar yetkazishga moyillik).

Qarovsiz bolalarda uchraydigan psixologik muammolar (%)

Psixologik muammo	Ulushi (%)
Emotsional beqarorlik	65%
Ijtimoiy moslashmovchilik	54%
Past o'zini baholash	71%
Agressiv xulq	49%
Yolg'izlik	60%

## 3. Psixologik xizmat ko'rsatishda samarali yondashuvlar

- Diagnostika: Rorschach testi, Luscher testi, "Men kimman?" savolnomalari
- Individal konsultatsiya: ishonchli aloqa, ota-onalar bilan muloqot
- Guruhli korrektsiya: art-terapiya, o'yin terapiyasi, psixodrama
- Mahalla va maktab bilan hamkorlik: tizimli va jamoaviy yondashuv

## 4. Shaxsiy tavsiyalar (muallif fikri)

Mening tajribamda eng samarali yondashuv bu — bola bilan ishonchli, doimiy aloqani yo'lga qo'yishdir. Qarovsiz bolalar, odatda, ishonchsizlik bilan qaraydi va birinchi muloqotdayoq samimiyatni sezishadi. Ular bilan ishslashda kuchli nazorat emas, balki mehrli qat'iyat va davomiylik muhim.

Har bir maktabda muntazam ravishda "psixologik profilaktika kunlari"ni tashkil qilish kerak. Shu bilan birga, Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi psixologga yo'naltirish tavsiya etiladi. Ota-onalari bilan farzand bilan bog'langanlik darajalari va uni qanday mustaxkamlash bo'yicha tavfsiya va o'smirlik psixologiyasi haqida tushuncha va bilimlar berish, oilaviy munosabatlarni yaxshilash uchun birgalikda mashg'ulotlar o'tkazish.

## Xulosa

Ota-onal nazorati bolaning psixologik barqarorligini ta'minlaydigan asosiy omildir. Nazoratsiz qolgan bolalar, ya'ni qarovsiz bolalar, ko'plab emotsiyal va ijtimoiy muammolar bilan yuzlashadi. Psixologik xizmat ko'rsatishda kompleks

yondashuv, ilmiy asoslangan metodlar va shaxsiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda bu muammoni kamaytirish uchun tizimli hamkorlik va chuqur profilaktika ishlarini olib borish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Абрамова, Г. С. (2017). Возрастная психология: учебник для вузов. Москва: Академический проект.
2. Кулагин, А. В. (2019). Психология сиротства и беспризорности. Санкт-Петербург: Питер.
3. Ходжаева, Д. (2024). Qarovsiz bolalarning psixologik portreti va ijtimoiy moslashuvi. Psixologiya va hayot, №1(21), 33–38.
4. Baumrind, D. (1966). Effects of Authoritative Parental Control on Child Behavior. *Child Development*, 37(4), 887–907.
5. Мухаметзянова, Д. (2021). Проблемы беспризорности среди подростков и пути их решения. Вестник психологии, №3, 55–59.